



SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

SURXONDARYO VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQRISHI


2021- YIL YANVAR-DEKABR
(DASTLABKI MA'LUMOT)




Surxondaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2021- yil yanvar-dekabr oylarida)

Dastlabki maʼlumotlar boʻyicha 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida Viloyat korxonalari tomonidan 6 trln. 785,9 mlrd. soʻnlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan boʻlib, 2020- yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 111,4 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga toʻgʻri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 90,3 % ni tashkil etdi.




Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* % da




*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi oʻzgarishini tavsiflovchi nisbiy koʻrsatkichdir.

Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi oʻsishining asosiy omili boʻlib, elektr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalashning . 28,0 % ga hamda ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning . 15,0 % ga oʻsishi kuzatildi.

Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati




Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 198,9 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,9 % ini tashkil etdi.




Tog'i-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Oʻtgan yilning mos davriga nisbatan, % da



Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-dekabr	2021- yil yanvar-dekabr	Farqi +/-
Koʻmir, ming t.	263,7	275,1	11,4
Neft, ming t.	72,9	86,3	13,4




Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-dekabr	2021- yil yanvar-dekabr	Farqi +/-
Qattiq tuz, ming t.	27,8	22,0	-5,8
Chaqiq tosh, ming t.	104,6	82,8	-21,8

Ishlab chiqaradigan sanoat

mlrd. soʻlm

Yanvar - dekabr

FHI,% da



2021- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 6 trln. 128,4 mlrd. soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlarining 90,3 % ini tashkil etdi.

2020- yil
yanvar-dekabr


89,2 %

2021- yil
yanvar-dekabr

90,3 %





Oʻtgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,2 % ni (2020- yilning yanvar-dekabr oylarida . 0,4 %), oʻrta-yuqori texnologiyali . 0,4 % (0,4 %), oʻrta-quyi texnologiyali . 24,1 % (19,4 %) va quyi texnologiyalisi . 65,6 % (69,1 %)ni tashkil etdi.




■ 2020- yil ■ 2021- yil



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish, taqirirlash va oʻrnatish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi . 7,6 % (2020- yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 165,0 %), metallurgiya sanoatining ulushi . 2,0 % (2020- yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 98,5 %), toʻqimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi . 41,4 % (2020- yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 111,9 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi . 20,9 % (2020- yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 105,8 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi . 0,9 % (2020- yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 133,8 %)ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning oʻsish surʼati
Oʻtgan yilning mos davriga nisbatan, % da






2021- yilning yanvar-dekabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 17,6 ming tonna paxta tolasi (2020- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 31,3 % ga kamaygan), 45,9 ming tonna kalava ip (5,2 % ga oshgan), 61,6 ming tonna neft bitumi (10,7 %), 24,0 ming tonna boshqa guruhlariga kiritilmagan suyuq neft yoqilgʻisi (mazut) (2,3 m.) hamda 47,9 ming tonna paxta chigiti (6,3 % ga kamaygan) ishlab chiqarilib, yuqori oʻsish surʼatlari kuzatildi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-dekabr	2021- yil yanvar-dekabr	Farqi +/-
Paxta tolasi, ming t.	25,6	17,6	-8,0
Kalava ip, ming t.	43,6	45,9	2,3
Boshqa guruhlariga kiritilmagan suyuq neft yoqilgʻisi (mazut), ming t.	10,1	24,0	13,9
Yumshoq bugʻdoy va spelta uni, ming t.	133,2	118,1	-15,1
Aroq, ming l.	984,1	455,3	-528,8
Oʻsimlik yogʻli (tozalangan), ming t.	8,8	3,9	-4,9

Metallurgiya sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida metallurgiya sanoati ulushi 2,3 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 745,9 % tashkil etgan boʻlsa, 2021- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga koʻra, metallurgiya sanoatining ulushi 2,0 % gacha koʻtarilib, fizik hajm indeksi esa, 1,5 % ga kamaydi va ishlab chiqarish hajmi 133,9 mlrd. soʻmni tashkil etdi.




Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 6,8 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 112,8 % ni tashkil etgan boʻlsa, 2021- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga koʻra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 7,3 % ni tashkil etdi, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 11,6 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 496,2 mlrd. soʻmni tashkil etdi.


Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 23,0 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 99,2 % ni tashkil etgan boʻlsa, 2021- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga koʻra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 20,3 % ni tashkil etdi, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 6,5 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 1378,5 mlrd. soʻmni tashkil etdi.




Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,8 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 78,2 % ni tashkil etgan boʻlsa, 2021- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga koʻra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,6 % ni tashkil etdi, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 91,3 % ni va ishlab chiqarish hajmi 40,0 mlrd. soʻmni tashkil etdi.



Toʻqimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati




Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida toʻqimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 36,6 % ni tashkil etgan boʻlsa, uning fizik hajm indeksi 122,4 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida toʻqimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 36,5 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 12,0 % ga oʻsgan boʻlsa, ishlab chiqarish hajmi 2474,1 mlrd. soʻmni tashkil etdi.

Kiyim ishlab chiqarish sanoati


2020- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga koʻra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 5,4 % ni, fizik hajm indeksi esa 116,5 % ni tashkil etgan boʻlsa, 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 5,0 %, fizik hajm indeksi 110,9 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 337,2 mlrd. soʻmni tashkil etdi.



Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2020- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga koʻra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,5 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 376,3 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,4 % ni, fizik hajm indeksi 74,9 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 26,9 mlrd. soʻmni tashkil etdi.



Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish




2020- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga koʻra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 5,9 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 64,2 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 6,7 % ni, fizik hajm indeksi 99,3 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 456,1 mlrd. soʻmni tashkil etdi.

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

2020- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga koʻra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,2 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 142,0 % ga oshgan.


Shuningdek, 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,5 % ni, fizik hajm indeksi 256,8 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 35,4 mlrd. soʻmni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bugi bilan taqminlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bugi bilan taqminlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 364,6 mlrd. soʻmni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 5,4 % ini) tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-dekabr oylarida, sanoatning mazkur tarmogida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bugi bilan taqminlash tizimlari va havoni konditsiyalashning oʻtgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 128,0 % ga oshganligi kuzatildi.




Elektr, gaz, bugi bilan taqminlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-dekabr	2021- yil yanvar-dekabr	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	82,4	180,8	98,4
Issiqlik energiyasi, ming gkal	33,6	35,6	2,0

Suv bilan taqinlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan taqinlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 94,0 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,4 % ini) tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug'i bilan taqinlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-dekabr	2021- yil yanvar-dekabr	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, <i>mlrd. so'm</i>	3,7	4,3	0,6
Boshqa axlatxonalarda xavfsiz chiqindilarni yo'qotish bo'yicha xizmatlar, <i>mlrd. so'm</i>	21,9	24,6	2,7

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar 91,7 % ga, oqova suvlarini yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 14,1 % ga shuningdek, boshqa axlatxonalarda xavfsiz chiqindilarni yo'qotish bo'yicha xizmatlar 12,5 % ga oshganligi kuzatildi.

Isteqol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qoʻllab-quvvatlash boʻyicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, isteʼqol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2 trln. 492,1 mlrd. soʻmni tashkil etdi va 2020- yilning mos davriga nisbatan 110,1 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 36,7 % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari

2020- yil
yanvar-dekabr

50,8 %

2021- yil
yanvar-dekabr

49,7 %

Nooziq-ovqat mahsulotlar

2020- yil
yanvar-dekabr

49,2 %

2021- yil
yanvar-dekabr





50,3 %

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 1,9 % (2020- yil yanvar-dekabr oylarida 3,4 %)ni tashkil etdi. Hududlar kesimida isteʼqol mahsulotlari ishlab chiqarilishining Viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Termiz shahriga toʻgʻri kelib 19,5 % ni, Shoʻxchi tumani 14,0 % ni, Denov tumani 12,9 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, isteʼqol mahsulotlari ishlab chiqarilishining oʻsish surʼatida Viloyat oʻsish surʼati (110,1 %) darajasidan yuqori koʻrsatkich Bandixon (183,9 %), Oltinsoy (136,0 %), Sariosiyo (134,1 %), Uzun (128,3 %), Shoʻxchi (125,1 %), Muzrabot (125,0 %), Jarqoʻgʻon (123,2 %) hamda Angor (121,2 %) tumanlarida qayd etildi.

Hududlar bo'lyicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining Viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Termiz shahriga to'g'ri kelib 19,5 % shuningdek, Sho'xchi tumanida 14,0 %, Denov tumanida 12,9 % ni tashkil etdi.



o'sish sur'ati
mlrd. so'm

Surxondaryo Viloyatsi hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

Hududlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining Viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Termiz shahriga to'g'ri kelib 20,6 % ni, shuningdek, Jarqo'rg'on tumani 14,5 % ni, Sariosiyo tumani esa 10,9 % ni tashkil etdi.

Surxondaryo Viloyati

2019- yil

4 231,3 mlrd. so'lm

2020- yil

5 322,5 mlrd. so'lm

2021- yil

6 785,9 mlrd. so'lm



2019- yil


107,1 %

2020- yil

106,7 %

2021- yil

111,4 %




FHI, % da


mlrd. so'lm

Aholi jon boshiga toʻgʻri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Termiz shahri (7 490,2 ming soʻm), Jarqoʻrgʻon (4 383,1 soʻm), Termiz (3 616,5 ming soʻm), Sariosiyo (3 419,1 ming soʻm), Sherobod (2 831,1 ming soʻm) hamda Shoʻrchi (2 584,7 ming soʻm) tumanlarida oʻrtacha Viloyat darajasi koʻrsatkichidan (2 502,2 ming soʻm) ancha yuqoriligini koʻrsatmoqda.





Surxondaryo Viloyati



Aholi jon boshiga to'g'iri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 918,9 ming so'm bo'lgani holda, Termiz shahrida . 2 613,0 ming so'mni, Sho'xchi tumanida . 1 625,8 ming so'mni, Termiz tumanida . 1 558,8 ming so'mni va Oltinsoy tumanida . 1030,7 ming so'mni tashkil etdi.

Surxondaryo Viloyati




o'lsish sur'ati

ming so'm

Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda Viloyatda 4 664 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 827 tasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 17,7 % i) Termiz shahriga, 548 tasi (11,7 %) Denov tumaniga, 351 tasi (7,5 %) Sho'xchi tumaniga, 305 tasi (6,5 %) Termiz tumaniga va 293 tasi (6,3 %) Sariosiyo tumaniga to'g'ri kelmoqda.



Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi

Viloyat sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o'sish sur'atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 36 ta loyiha bo'yicha 106,3 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Mahalliyashtirish dasturi doirasida 2021-yilning yanvar-dekabr oylarida 132 ta yangi ish o'rinlari yaratildi.

Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining asosiy ko'rsatkichlari

	2020- yil yanvar-dekabr	2021- yil yanvar-dekabr
<i>Loyihalar soni, birlikda</i>	20	36
<i>Korxonalar soni, birlikda</i>	19	33
<i>Ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm</i>	56,4	106,3
<i>Eksport qilingan mahalliyashtirilgan mahsulot hajmi, mln. AQSh dollari</i>	-	0,030
<i>Yaratilgan yangi ish o'rinlari, birlikda</i>	235	132